

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSI

Zulayxo Jabborova Mansur qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

Sultonov Turdali Muxtoraliyeich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

Annontatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o'z g'oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy fikrlay olish salohiyati, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash, kommunikativ savodxonligi kabi ko'nikmalar shakllanib boradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, tanqidiy, fikrlash, mustaqil, salohiyat, kommunikativ, tahlil qilish, noan'anaviy, matematik masala, pedagogic.

Kirish. Bugungi kunda barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o'quvchilar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilish dolzarb masalalarning biriga aylanmoqda. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta'lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishini talab etadi. Tanlangan metodlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish kerak. Shu o'rinda Atabek Nazarovning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz. Maktablarda o'quvchilar darsliklarda berilayotgan ma'lumotlarni yodlashlari kerak emas, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishimiz kerak. Bu haqida Atabek Nazarov o'zining Global haftaligi doirasida ta'kidladi: «Biz bolalarni birinchi sinfdan **Nima uchun?** degan savolni berishga o'rgatmaymiz, aksincha, biz tanqidiy fikrlashga o'rgatamiz». Hozirda biz xorijlik hamkorlarning bu yo'nalishdagi tajribalarini o'rganish va bu tajribani bizning o'qituvchilarimiz uchun moslashtirish bo'yicha ish olib boryapmiz. O'qitish metodologiyasi bolalarni mustaqil ma'lumot va bilim olishga o'rgatishi kerak. Agar biz bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatsak, internet davrida ular savollarga o'zlari javob olishlari mumkin» - deydi Atabek Nazarov. Atabek Nazarovning ma'lumotiga ko'ra xalq talimi tizimida 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritmoqda, ularda yarim millionga yaqin o'qituvchi 6 millionga yaqin o'quvchilarga ta'lim bermoqdalar. Bugungi kunda 10% maktab bitiruvchilarigina oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirmoqdalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o'z g'oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy fikrlay olish salohiyati, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go'zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog'lom bo'lish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari shakllanib boradi. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirish va amalda to'g'ri qo'llay olishlarini ta'minlaydi. Muloqot jarayonida odamlar ma'lumot almashadilar. Zamonaviy texnologik vositalarning rivojlanishi orqali turli axborotlar kirib kelmoqda buning natijasida o'quvchilarda ikkilanishlar juda ko'p kuzatiladigan. Boshqacha aytganda, u tanqidiy fikrlashni rivojlantirgandagina bu ikkilanishlar mutlaqo bo'lmagan bo'lar edi.

XXI asr pedagogikasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'ziga xos muhit, kreativ shaxs, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish qobiliyatining rivojlantirish haqida ta'kidlab o'tilmoqda.

Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar insoniyatning zamonaviy bilimlarni egallashlarni uchun shart- sharoitlar yaratib berilmoqda. Fikr inson tomonidan tug'iladigan g'oyat katta kuch va fikrlash jarayonini universal shaklidir. Fikrlash – biror muammoni yechish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o'ylamoqdan iborat bo'lgan psixologik jarayondir. Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon bo'lib, u faol muvofiqlashtiruvchi hamda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.¹

Tanqidiy fikrlashning kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak juda qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ular bilan quydagilar orqali tanishib olamiz.

Bizga ma'lumki tanqidiy fikrlash tarixi 2500 yil oldin boshlangan. Eramizdan avvalgi 400-300 yil oldin yashagan yunon faylasuflari Platon, Suqrot, Aristotel davrida ham tanqidiy fikrlash juda ko'p munozaralarga sabab bo'lgan. Hozirgi kunda ham dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Quyidagi keltirilgan yunon olimlari tahlil qilish, mulohaza yuritish va tanqid qilishni o'rganish shu bilan birga analitik, sintetik fikrlashni yaratgan. Jumladan Suqrot yangi g'oyani taklif qilishdan ko'ra nima «yomonligini» ko'rsatishni muhim deb bilgan. Suqrot nazariyasiga ko'ra o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatishning eng mashhur usuli «Sokratik so'roq» bo'lib aniqlik va mantiqni keltirib chiqaradi deyilgan. Shunga asosan tanqidiy fikrlash narsalar va hodisalarni tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar sistemasi bo'lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya'ni u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir.

Sharq mutafakkirlaridan biri Xorazmiy tanqidiy fikrlash nazariyasini rivojlanishida katta hissa qo'shgan. U tajriba-kuzatish va eksperimental metod, samoviy jismlar harakati, shuningdek, er sathidagi punktlarni jadval ko'rinishida ilk bor ilmiy asosladi, induksiya va deduksiya jihatidan yagona, alohida va umumiyning birligi tamoyilini aniqlashtirdi: xususiy holdan alohida holdagi tenglamaga o'tdi, lekin umumiy turgacha yetmadi. Hozirgi paytda hamma e'tirof etgan umummilliy metod bo'lgan matematik masalalarni hal etishning algoritm metodini ishlab chiqdi va hozirda foydalanib kelinmoqda.

Buyuk qomusiy olim Farobiy (873-950) «Baxt saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Shuningdek, tabiiy ilmlarni tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Farobiy dunyoni insonning o'z bilimi aqli yordami bilan bilishni nazarda tutib, tushunish esa umumiy qoida va qonunlar to'g'risidagi harakat bo'lib, ularning oxiri bor va chegaralangan hamda umumlashtirilgandir - deb yozgan edi. Farobiy fanlarga bilimlarni o'zlashtirish va to'plashning zarur vositasi sifatida muhim ahamiyat berdi, ularni egallashni esa savodxonlik ko'rsatkichi deb hisobladi. Uning aytishicha, hissiyot a'zolari, yurak va miya inson tug'ilgandan ato etilgan, bilim, turli xil aqliy va axloqiy xususiyatlar, xarakter belgilari, ta'lim olish va boshqalar inson hayotiy tanqidiy fikrlashi jarayonida egallanadi va rivojlanadi. U inson xarakterining turli xususiyatlari va axloqiy fazilatlarini: dadillik, mardlik, do'stlik, saxiylik, zukkolik, haqqoniylik va hokazolarni belgilar ekan, ularni shaxsni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash natijasi deb hisoblaydi.²

Ibn Sino tanqidiy fikrlashning turli ma'no mazmunini ochib bergan. Ularni ruhning xilma-xil kuchlari deb tasvirladi va bu kuchlarning anchagina qismini ibtido hukmi ta'siridan ajratib oldi. U qadimgi an'anaga muvofiq ruhni uch ko'rinish: nabotot, hayvonot va aqlga ajratadi. Birinchisi ikki kuch – harakatlantiruvchi va qabul qiluvchiga bo'linadi. Qabul qiluvchi, o'z navbatida, tashqari va ichkaridan qabul qiluvchiga ajraladi. Birinchisiga besh yoki sakkiz hissiyot tegishlidir. Jumladan, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy o'z asarlarida bu boradagi masalalarga alohida to'xtalib, o'quvchi shaxsi, fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim berishda ko'proq qaysi tomonlarga e'tibor berish kerakligini bayon qiladi. Xususan, olimning fikricha,

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild.- Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil. -39b.

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1993-yil. 122b.

o'qitishda yodlatish emas, balki tushunish, mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish yo'llariga amal qilish muhimdir.³

«Tanqidiy fikrlash» atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Mazkur tushuncha haqida tafsilot berishdan oldin, muayyan fikrlash ko'nikmalari ustida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunki fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish uchun nihoyatda zarurdir. Ta'lim jarayonida «tanqidiy fikrlash» atamasidan foydalanish amerikalik faylasuf Jon Dyuiga (1910-yil) borib taqaladi, u ko'proq uni «reflektiv fikrlash» deb atagan. U shunday ta'rif berdi: «Har qanday e'tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini uni qo'llab-quvvatlovchi asoslar va u moyil bo'lgan keyingi xulosalar nuqtayi nazaridan faol, qat'iyatli va diqqat bilan ko'rib chiq va bunday mulohaza yuritish odatini ilmiy nuqtai nazar bilan aniqladi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni ta'limning yakuniy intellektual maqsad deb boldi. Uning fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. Shu sababli, ta'lim jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi». Darhaqiqat, rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'quvchilarning intellekt darajasini aniqlash zaruriyati tanqidiy fikrlashni shakllantirishni vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Charlz Templ, Kert Meredist, Djinn Stillarning «O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish» loyihasida quyidagilar ta'kidlanadi: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni, dastlab, ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai nazarini ishlab chiqadi».

Darhaqiqat, «tanqidiy fikrlash» atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinmoqda, ammo uning talqinlari bugungi kungacha turlichadir. Bir qator pedagog-psixolog olimlar I. S. Kon, L. S. Rubinshteyn, S. S. G'ulomov, E. G'ozievlar tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi degan g'oyani ilgari surishsa, faylasuf olimlar G'ofurov, J.Tulenov, Q.Nazarov fikrlaricha tanqidiy fikrlash deganda mantiqiy fikrlash va uni asosli isbotlash ko'nikmalari tushuniladi, uning yordamida o'quvchilar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar.

Bugungi zamonaviy yoshlarimizda davlatimiz rahbari aytganidek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz kutgan natijaga erisha olamiz, ular jamiyatimizning yetuk kadrlari bo'lib etishadi.⁴ Bizning fikrimizcha, amaldagi bunday bo'shliqlarni to'ldirish va ta'lim amaliyoti o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish natijasida har bir rejali o'quv jarayonining didaktik ta'minoti e'tiborga olish, o'quvchilarni o'quv materialini qanday o'zlashtirayotgani doimiy monitoringini ishlab chiqish, ta'lim jarayonidagi muammolarning yechimini topishga bo'lgan zarurat kuchayib bormoqda. O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish shunday uslubiy xizmatni talab etadiki, bunda yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmaslik, ularning pedagogik dahlsizligini ta'minlash hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish lozim bo'ladi. O'quvchilarni tanqidiy fikrlash uchun eng avvalo, ularning o'zlari mas'ul ekanliklarini anglatish lozim. Pedagogning vazifasi esa tanqidiy fikrlashni rag'batlantirib turuvchi muhitni yaratishdan iborat bo'ladi.

³ Abu Ali ibn Sino. Tib ilmi qonuni. – T.: Sharq 1985.112b

⁴ Sh. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T 2017-yil Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vzirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.

Zamonaviy maktabning o'qitish jarayonida ta'limning rivojlanishini ta'minlaydigan 50 dan ortiq pedagogik texnologiyalar, metodlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu yangi pedagogik texnologiyalar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu texnologiyani nashr etgan amerikalik o'qituvchilar J. Stil, K. Meredit, Ch. Ma'bad, S. Valter. Ularning fikricha, o'rganish faol bo'lishi kerak. Faoliyat faqat o'quvchi har bir narsada ma'no topishga qiziqsa sodir bo'ladi. O'tgan asrning 90-yillarida butun dunyo faylasuflari, psixologlari va pedagoglari ilg'or tajribalar asosida o'qitish texnologiyasini yaratdilar. Bu texnologiya mamlakatimiz uchun yangi texnologiya hisoblanadi. Biroq, bu texnologiya ba'zi o'qituvchilarning amaliyotida qo'llaniladi. Shu munosabat bilan biz tanqidiy fikrlash texnologiyasini har tomonlama ko'rib chiqdik va uning boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda imkoniyatlarini ko'rsatishni maqsad qildik. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kontseptsiyasi har qanday yangi g'oyani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish yoki unga to'liq ishonish emas, balki g'oyalarning asosiy sabablari, amalga oshirish yo'llari va natijalarini bilish, ularni o'z muhitingizga, imkoniyatlaringizga, ehtiyojlaringizga mos ravishda integratsiyalashtirish iborat. Sizning harakatlaringiz, tahlilingiz, mulohazalaringiz, ya'ni muammoga tanqidiy qarash va uni o'z maqsadi uchun ishlatish qobiliyati. Ulardan biri o'quvchilarni yuksak tafakkur va tanqidiy fikrlash darajasiga yetkazuvchi uslubiy tizimga bag'ishlangan «O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish» loyihasidir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi butun dunyo o'qituvchilarining birgalikdagi ishi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi barcha maktab o'quvchilarining har qanday mazmunga tanqidiy qarashga, ikkita taklifdan birini tanlashga, ongli qaror qabul qilishga o'rgatishdir. Sinfda o'quvchilar bilan qanday ishlash kerakligi haqidagi savolga oddiy javob yo'qligi ma'lum. Lekin o'qituvchi o'zini fikr va his-tuyg'ularga ega shaxs sifatida ko'radigan o'quvchini shakllantirishi kerak. Ya.A.Kamenskiyning ta'kidlashicha, «Ta'limda nimani o'rgatmaylik muvaffaqiyatdan xoli bo'lmaydi» deb bekor aytib o'tmagan.

Metodologiya. Savol berish va izlanishni davom ettirish bilim va har qanday rivojlanishning mohiyatidir. E.Dakvort o'z kitobida shunday deydi: "Yorqin g'oyaning paydo bo'lishi intellektual rivojlanish ko'rsatkichidir". Pedagogikaning asosi bolaning o'z fikrlarini yaratishi va o'zini yaxshi his qilishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishdir. Va Dyuining asosiy g'oyalari: o'quvchini o'quv dasturi bilan integratsiya qilish. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi kombinatsiyasiga asoslanadi ni aniqlashga qaratilgan nazariy tahlil va pedagogik tadqiqot yondashuvlari bo'lajak boshlang'ich sinfning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlashning roli maktab o'qituvchilari. Tadqiqot dizayni sifat-dominant aralashga tayanadi kognitiv va pedagogik jihatdan chuqur tekshirish imkonini beruvchi yondashuv jarayonlar, shuningdek, o'qituvchilar ta'limida umumlashuvchi tendentsiyalarni hisobga oladi amaliyot. Nazariy darajada tizimli tahlil qilish falsafiy, psixologik va ularning kontseptual asoslarini oydinlashtirish uchun pedagogik adabiyotlar olib borildi tanqidiy fikrlash va matematik savodxonlik. Klassik va zamonaviy nazariyalar Tanqidiy fikrlash, shu jumladan kognitiv, metakognitiv va konstruktivistik istiqbollari, matematikaga aloqadorligini aniqlash uchun tahlil qilindi ta'lim. Bunga parallel ravishda matematik savodxonlikning ilmiy talqinlari ham mavjud edi kognitiv, funktsional va qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratgan holda ko'rib chiqildi boshlang'ich o'qituvchilarni tayyorlash kontekstidagi o'lchovlar. Bu tahlil buni amalga oshirdi tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan kontseptual aloqani o'rnatish mumkin samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan matematik savodxonlik komponentlarini tashkil etadi.

Natijalar. Tanqidiy fikrlash loyihasi orqali maktablarda jiddiy o'zgarishlar tus oldi. Tahlil qilish, xulosa chiqarish butun dunyodagi o'quvchilarni va barcha darajadagi o'qituvchilarni birlashtiradi. Loyiha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining haqiqiy va doimiy o'zgarishlarini ta'minlay beradi. Darhaqiqat, tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayonidir. Ta'kidlash joizki, tanqidiy tafakkur-bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallashga, mazkur matn bo'yicha o'rtoqlari bilan birgalikda harakatda bo'lishiga qaratilgan pedagogik texnologiya. Tanqidiy

fikrlash o'quv jarayondagi ruhiyatni o'zgartira oladigan tamoyillar majmuidir, ya'ni mashg'ulot o'qituvchi va o'quvchilarning ijodxonasiga aylanadi. Tanqidiy fikrlashning tuzilishlari, aqliy faoliyatning umumlashgan usullarining shakllantirish yo'llarini belgilovchi alohida komponentlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shu bilan birga mazkur tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashning barcha komponentlarini egallashga yo'naltirish asosida tizimli ta'limga tayyorlash va shaxsni har tomonlama faollashtirish oldinga suriladi. Bu maqsadlarni tugal konsepsiya sifatida amalga oshirish an'anaviy didaktik tizimlarning barcha bo'g'inlarini takomillashtirish, shu jumladan, o'quvchilarning faol tanqidiy tafakkurini shakllantirishning usullari, metodlari va tashkiliy vositalarini ta'minlash uni inson taraqqiyotining turli yosh bosqichlarida chuqur tadqiq etish zaruriyatini talab etadi.

Xulosa. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, tanqidiy fikrlash balki, ma'lumotni tahlil qilish va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi, balki mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy hal qilish va asosli qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar uchun maxsus didaktik materiallar va qo'llanmalar yaratish ham dolzarb vazifalardan biridir. Yakuniy xulosa shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning nafaqat akademik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki kelajakdagi hayotda faol va ongli fuqaro bo'lishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
- 2.Sh. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent 2017-yil Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.
- 3 N.S.Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob.-T.: "Fan va texnologiya" 2012-yil.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi, o'qituvchilar va guruh rahbarlari uchun amaliy tasiyalar) – T.: Istedod, 2010-yil.
5. http://en.wikipedia.Org/wiki/Critical_thinking